

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

**ФОРМИРОВАНИЕ РАЗГОВОРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ
ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**FORMATION OF SPEAKING COMPETENCES OF STUDENTS IN
TEACHING MOTHER LANGUAGE SCIENCE IN PRIMARY GRADES**

*Nuradilova Aselxan Dilshodxo‘ja qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni
o‘qitish metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi*

*Нурадилова Асельхана Дилшодхуджса кизи
Преподаватель Ташкентский государственный педагогический
университета Родной язык и его преподавание в начальной образовании*

*Nuradilova Aselkhan Dilshohuja kizi
Tashkent State Pedagogical University Mother tongue and its teaching in
primary education teacher of the methodology department*

Annotasiya. Ushbu maqolada nutqiy kompetentsiya tushunchasi, boshlang‘ich sinfo‘quvchilarda nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda matn asosida ishlashni tashkil etilishi, qo‘llanilish ahamiyati, matn taxlili natijasida o‘quvchilarning fikr va g‘oyalalarini erkin bildirishi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Nutqiy kompetentsiya, matnlar tahlili.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие речевой компетенции, организация работы на основе текста в развитии речевых компетенций у учащихся начальной школы, значение прикладного, свободного выражения мыслей и идей учащихся в результате анализа текста.

Ключевые слова. Речевая компетенция, анализ текстов.

Abstract. This article discusses the concept of speech competence, the organization of text-based work in the development of speech competence in elementary school students, the importance of its application, and the free expression of students’ thoughts and ideas as a result of text analysis.

Keywords. Speech competence, analysis of texts.

Respublikamiz ta’im muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrashi, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lishi, dahldorlik va ijtimoiy faoliytni yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Bu esa shaxsning intellektual qirralarini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolar echimini topishi uchun zarur bo‘lgan kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda ta’lim mazmunini xalqaro ta’lim standartlari talablariga muvofiq yangilash borasida samarali yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, kompetentsiyaviy

yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va o'quv dasturlari hamda yangi avlod darsliklari yaratilib, ta'lim oluvchilarining qobiliyatlari, o'quv va layoqatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, mustaqil fikrli, har qanday vaziyatda munosib ish ko'ra oladigan, e'tiqodida sobit, qat'iy pozisiyaga ega, bir so'z bilan aytganda, kompetentli shaxsni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonidir .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutqiy kompetentsiyani shakllantirishda tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Jumladan:

- o'qib eshittirilgan matn, namoyish etilgan lavhalardagi asosiy axborot, voqeahodisalarni tushunadi;
- jumlalar, ibora va atama (termin)larning ma'nosini tushungan holda to'g'ri o'qiy oladi;
- so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri va ravon, og'zaki bayon eta oladi;
- so'z birima va gaplarni biriktirgan holda fikrni aniq va ravon yozma bayon eta oladi;
- 50-55 so'zdan tashkil topgan diktantni yoza oladi, 9-10 gapdan iborat bo'lgan ijodiy matn (bayon) yoza oladi, bayon, insholarga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi; matn yaratishda badiiy tasvir vositalaridan o'rinni foydalana oladi;
- tinish belgilari, husnixat va imlo qoidalariiga amal qila oladi .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutqiy kompetentsiyani shakllantirishda matnlar asosida ishlashining ahamiyati shundaki, u o'quvchining individual xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beradi, o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollash-tirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliya-tida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar echimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Matnlar bilan ishlashning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil muloxaza qilishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod kilish, ma'lum mavzu yuzasidan xar xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytiradi va ijodkorligini rag'batlantiradi. Qo'yilgan har qanday muammoning ko'plab echimlarini izlab topishga yordam beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetentsiyalarini shakllanti-rishda matnlar bilan ishlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- har bir mavzu va bo'limning ta'limiy imkoniyatlarini to'la ishga solish;
- tanlangan matnning o'rganilayotgan til hodisasiiga ta'siri;
- dars jarayonida berilayotgan matn tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash shular jumlasidandir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutqiy kompetentsiyada gapirish ko'nik-masini shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy matndan foydalansa bo'ladi. O'quvchi-lar matnni davom ettirish kerak: «O'g'ri»

Boyning bir qop tillasi yo'qolibdi. U qoziga borib arz qilibdi. Qozi da'vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to'plab, har biriga bittadan tayoq beribdi. Ularga: «Kimda kim pul o'g'irlagan bo'lsa, uning tayog'i ertaga bir enli uzayib qoladi» - debdi.

Hamma tarqalib, o'z ishi bilan mashg'ul bo'libdi. Lekin o'g'ri vahimaga tushibdi. Tayog'i uzayib, siri ochilib qolishdan qo'rqibdi. Natijada u tayog'idan bir enlikcha qismini qirqib tashlabdi....

O'quvchilarga matn yuzasidan quyidagi topshiriqlar beriladi.

1. O‘quvchilar ushbu matnni tugating.
2. Berilgan matnga yana qanday sarlavha qo‘yilsa to‘g‘ri keladi?
3. Da‘vogar so‘zining izohini ayting (talab qiluvchi).
4. Qozi aytgan gapining mazmuniga e’tibor bering.
5. Tilla, pul, qozi so‘zlarining ma’nodoshlarini ayting.

Samarali echimga keladigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishda o‘qish, gapirish, tushunib etish ko‘nikmalarni rivojlantira oladi. Demak, o‘quvchilar tomonidan aytilgan barcha fikrlar, muhokama qilingan matn tahlili o‘tiladigan mavzuning yanada tushunarli bo‘lganidan dalolat beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini oshirish bilan bir qatorda bildirilayotgan fikrlarni to‘g‘ri va ravon bayon eta olishini rivojlantirish, erkin fikrلay olish, yangi mavzularni o‘zlashtirishda muammoga duch kelmaslik holatlari kuzatiladi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodlarni shunday qo‘llay olishi kerakki, o‘quvchilar matnlarni qayta tahlil qila olsin. Shunday ekan, ta’lim jarayonida yoshlар ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi har bir o‘qituvchi o‘quvchilarni barkamol inson qilib etishtirish uchun samarali mehnat qilmog‘i kerak.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016.
2. https://www.researchgate.net/profile/Xoliqova_R./publication/.Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to‘plami T. 2019.
3. Masharipova va boshq. Ona tili 3-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llamma. Toshkent, 137 b.
4. Muslimov N.A. va boshq. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. Rizografi, 2013. – 88 b.
5. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017 yil 14 (774)-son, 230-modda. – 233 b.
6. Alovuddinova N.G. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent: 2007. – 135 b.